



DIALECTAL LEXIS AND ITS OCCURRENCE IN TOPONYMS (Based on the Materials of Kashkadarya Region)

Beginmov Odil To'xtamishovich

Head of the Department of Uzbek Language and Literature,
Karshi State Technical University,
Doctor of Philological Sciences

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20378244>

ARTICLE INFO

Received: 18th May 2026

Accepted: 22nd May 2026

Online: 23rd May 2026

KEYWORDS

Toponymy,
microtoponymy,
geographical term,
dialectal lexis.

ABSTRACT

It is well known that dialectal lexis serves as a valuable source in the formation of regional toponyms. In this respect, the study of toponyms is important because they reflect the characteristics of local dialects and preserve lexical units that are gradually disappearing from everyday speech. Therefore, investigating them enables us to answer many questions in dialectological research. This article examines the lexical-semantic features and toponym-forming potential of certain lexical units specific to local dialects that have been preserved within the toponyms of the Kashkadarya region.

DALEKTAL LEKSIKA VA ULARNING TOPONIMLARDA VOQELANISHI (Qashqadaryo viloyati materiallari asosida)

Beginmov Odil To'xtamishovich

Qarshidavlat texnika universiteti, O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, filologiya
fanlari doktori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20378244>

ARTICLE INFO

Received: 18th May 2026

Accepted: 22nd May 2026

Online: 23rd May 2026

KEYWORDS

Toponimiya,
mikrotoponimiya,
geografik termin,
dalektal leksika.

ABSTRACT

Ma'lumki, dialektal leksika hududiy toponimlarning shakllanishida uchun qimmatli manba hisoblanadi. Shu jihatdan har bir hudud toponimlari mahalliy shevalarining xususiyatlarini aks ettirgani, nutqdan yo'qolib borayotgan leksikani saqlab qolgani sababli, ularni o'rganish bizga dialektologik tadqiqotlarda ko'plab savollarga javob berish imkonini beradi. Ushbu maqolada Qashqadaryo toponimlari tarkibida saqlanib qolgan ayrim mahalliy shevalarga xos leksimalarning leksik-semantik xususiyatlari va toponimlar yasash imkoniyatlari tadqiq etilgan.

KIRISH

Qashqadaryo vohasi o'zining boy tarixiy-madaniy merosi, murakkab etnik tarkibi va rang-barang tabiiy geografik sharoiti bilan O'zbekistonning eng

qadimiy hududlaridan biri hisoblanadi. Bu hududda shakllangan toponimik tizim uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonining mahsuli bo'lib, unda xalqning turmush tarzi, xo'jalik faoliyati, tabiat bilan



munosabati, etnik qatlamlari hamda mahalliy shevalarning izlari yaqqol aks etadi. Ayniqsa, mahalliy dialektlarga xos leksik birliklar voha toponimiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Toponimlar tarkibida saqlanib qolgan dialektal birliklar til tarixini, qadimgi leksik qatlamlarni, mahalliy aholi dunyoqarashi va hududning tabiiy-geografik xususiyatlarini yoritishda muhim manba vazifasini bajaradi. Shu jihatdan qaraganda, Qashqadaryo hududi toponimlarida uchraydigan dialektal geografik terminlarni o'rganish nafaqat toponimikaning, balki dialektologiya, etnolingvistika va tarixiy leksikologiyaning ham dolzarb masalalaridan biridir. Chunki ayrim sheva so'zlari bugungi adabiy tilda iste'moldan chiqib ketgan bo'lsa-da, ular joy nomlari tarkibida qadimiy shakl va ma'nolarini saqlab qolgan.

Qashqadaryo toponimiyasida uchraydigan dialektal leksika asosan hududning tabiiy sharoiti, chorvachilik va dehqonchilik madaniyati, yaylov hayoti, suv inshootlari hamda aholi turmush tarziga oid tushunchalarni ifodalashi bilan xarakterlanadi. Bu jihatdan voha toponimlari tarkibida orografik, gidrografik, oykografik va fitografik xarakterdagi terminlarning keng qo'llanilishi kuzatiladi.

Hudud toponimlarining shakllanishida mahalliy sheva unsurlarining ishtiroki xalqning ko'p asrlik tajribasi va tabiiy muhitni idrok etish usuli bilan chambarchas bog'liqdir. Toponimlar tarkibidagi bunday dialektal birliklar ko'pincha joyning tabiiy ko'rinishi, relyefi, suv manbalari, tuproq xususiyati, o'simlik dunyosi yoki xo'jalik

faoliyatini aniq ifodalab beradi. Shu sababli ular xalqning tarixiy xotirasini, qadimgi turmush tarzini hamda tilning arxaik qatlamlarini o'zida mujassamlashtirgan noyob lingvistik birliklar sifatida baholanadi.

Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyati toponimlari tarkibida uchraydigan dialektal leksikaning semantik va etimologik xususiyatlari tahlil qilinadi hamda ularning hududiy joy nomlari shakllanishidagi o'rni yoritiladi. Dialektal terminlarning toponimik tizimdagi voqelanishini o'rganish orqali voha aholisining tarixiy-etnik tarkibi, xo'jalik faoliyati va til taraqqiyoti bilan bog'liq muhim ilmiy xulosalarga kelish mumkin.

TADQIQOT METODLARI VA METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda o'zbek dialektologiyasi, toponimika va etnolingvistika yo'nalishlarining nazariy tamoyillariga tayanildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi: Qashqadaryo viloyati hududidagi dialektal leksik birliklarning ma'nosi va qo'llanish doirasini tavsiflashda **deskriptiv metod** qo'llanildi; dialektal terminlarning muayyan hududlarda tarqalishi va toponimlar tarkibida uchrash holatlarini aniqlashda **lingvistik-areal metoddan** foydalanildi; ayrim toponimlar tarkibidagi qadimiy turkiy va eroniy qatlamga oid birliklarning kelib chiqishini izohlashda **etimologik tahlil metodi** qo'llanildi; dialektal birliklarning ma'no guruhlarini (orografik, gidrografik, fitografik, oykografik va boshqalar) aniqlashda **leksik-semantik tahlil metodi** asos bo'ldi; Qashqadaryo shevalaridagi birliklarni qozoq, qirg'iz,



turkman, uyg'ur va boshqa turkiy tillardagi muqobil shakllar bilan solishtirish orqali ularning tarixiy umumiylikni ko'rsatishda **qiyosiy-tarixiy metod**dan foydalanildi.

Tadqiqotning metodologik asosini o'zbek toponimikasi va dialektologiyasi bo'yicha yaratilgan ilmiy tadqiqotlar, xususan, T. Nafasov, D. Abdurahmonov, V. V. Reshetov, Sh. Shoabdurahmonov kabi olimlarning ilmiy qarashlari tashkil etadi. Shuningdek, hududiy shevalar materiallari, xalq og'zaki nutqi hamda joy nomlariga oid dala kuzatuvlari tadqiqotning asosiy manbalari sifatida foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mahalliy shevalarga xos leksika har qanday toponimik tizimga tegishli joy nomlarini shakllanishida muhim manbalardan biri hisoblanadi. Ushbu turdagi toponimik ma'lumotlarni o'rganish orqali biz dialektologik tadqiqotlar davomida yuzaga keladigan ko'plab savollarga javob berishimiz mumkin. Shu bilan birga, dialektal leksikani o'rganish orqali biz mahalliy muhitda mavjud va qo'llanadigan toponimlarning shakllanishiga tarixiy jihatdan aniq izoh berish imkoniga ega bo'lamiz.

Biz o'rganayotgan mintaqaning dialekt leksikasi u yerda shakllangan toponimik tizimda juda aniq aks etgan. Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'ladiki, Qashqadaryo toponimiyasidagi eng ko'p sonli dialekt so'zlar guruhi mahalliy geografik terminlardan iboratdir. Bu terminlar leksik-semantik xususiyatiga kora qo'yidagi guruhlariga tegishli:

1) orografik terminlar: alang, dapsan, qovoq, chag'at, dumaloq, dum,

jungurak/chungirak, xovar, ko'r, nura, nurqay;

2) gidrografik xarakterdagi terminlar: darak, og'iz, jirg'anaq, mingko'z, qoq, nart, obdon, qo'l;

3) oykografik xarakterdagi terminlar: qo'nish, to'la, o'choq, dagar, do'lta, koza;

4) fitografik xarakterdagi terminlar: mo'din, mo'chin, g'oz, dursun, jangal;

5) kasb-hunar bilan bog'liq tushunchalarini ifodalovchi terminlar: kudunkur, obkash;

6) insonlarning xarakter-xususiyatini ifodalovchi terminlar: go'shna;

Masalan, chel so'zi Kitob, Shahrisabz, Yakkabog, Denov, Qarshi kabi obikor rayonlar aholisi nutqida sug'orma dehqonchilik qilish uchun kichik maydonchalarga ajratilgan maydonlarning chekkasiga tuproq uyib qilingan cho'ziq uvat, marza; qo'nish — chorvadorlarning bahor, yozda ko'chib chiqib, vaqtincha turadigan qrogohi; darak — band, suvni bir necha ariqlarga bo'ladigan to'g'on; to'la - chorva va chorvadorlarning vaqtincha yashash joyi, kishilarning ibtidoiy manzilgoqi sifatida balandliklarning quyisi, kamar ichlarida kovlab qazilgan makon; o'choq — chorvadorlarning yaylovda yozgi yashashi uchun qazilib, usti xas-hashak bilan yopilgan vaqtinchalik makoni, yerto'lasimon qarorgoq; og'iz>oviz>ovuz — daralarga, togning ichki qismlariga o'tish mumkin bo'lgan so'qmoq, guzar; alang — yassi balandlik, tekislikdan sal kutarilib turgan dunglik; butan - qipchoq shevasida to'daga qo'shilmay ajralib chiqqan, yakka, yolg'iz; Qashqadaryoning quyi rayonlarida — suv tuplanishi yoki toptalishi natijasida



tuprogi zichlashib qotib qolgan joy, o't-ulan o'smagam yer bo'lagi; mo'din — daraxt, o'rmon; mo'chin — o'rmonli, dov-daraxtli joy; jirg'anaq — Qashadaryoning qipchoq shevalarida suv oygan yoriq, o'yiqlik. Bahor yog'inlari, sel toshqinidan paydo bo'lgan kamtik yoki soy tubida suv o'zanidan hosil bo'lgan jarsimon o'yiqlik ham — jirg'anaq. Quyi Surxondaryo shevalarida jirg'anaq — yog'in, qor suvi o'yib ketgan zovur, ariqlik yo o'yiqlik [12,10]; dapsan - ust qismi ancha yassi bo'lgan balandlik, shu tipdagi boshqa (ikkinchi) balandlikdan kichik bo'lgan tepa; qovoqlik — ust qismi yassi tarzda bo'lib, ko'rinishi inson qovog'iga o'xshash qavariqlik, shu tipdagi boshqa dunqlikdan kichik bo'lgan balandlik; kudunkur — kudunggar (kudun + gar) so'zining dialektal shakli. Kudung — o'tmishda to'qilgan (alacha, chit, shoqli, buz va s.) matoga pardozi berish maqsadida ishlatiladigan to'qmoqsimon yog'och asbob. -gar -kor ot yasovchi qo'shimchasining varianti; chag'at — tog' bag'ridagi adir, qiyalik, toshli joy. Qipchoq shevalaridagi chag'al ham shu ma'noda; adirmoqlik—adirlik, adir joy, mayda tepalari bo'lgan yalanglik yer. Adir+moqlik (<ma+qlik) morfemalaridan iborat; go'shna - xalq nutqida ishqivoz, biror narsaga haddan tashqari qiziquvchan, o'ta beriluvchan kishi; dagar - Qashqadaryoning quyi tumanlarida suv tuplanishi yoki toptalishi natijasida tuprog'i zichlashib qotib qolgan joy, o't-ulan o'smagam yer bo'lagi; dum — maydon va yerning chegara nuqtalaridagi nisbatan balandroq joylarda belgi sifatida o'yilgan tuproq (tosh) to'dasi, do'ng so'zining bir kurinishi. Do'ng — umumiy tushuncha, ya'ni har qanday balandlik; dum —

chegarada belgi vazifasini o'taydigan kichkina balandlik; ko'r — tog'ning katta tizmasi yoki bag'riga tutash, boshi berk joyi. Boshi berk yoki tog'ning baland cho'qqisiga tutashgan dara ko'rdara deyiladi; qoqlik - yaylovda yog'in suvlari to'planib uzoq vaqt saqlanadigan hovuz; nart — ariqlarning suvini ekinzor yoki kichik yonariqqa chiqarish uchun to'sib qilingan band, damba.

Endi dealektal leksikaning hudud toponimlarida voqelanishini ko'rib chiqamiz. Yakkabog' tumanida Nura nomli balandlik mavjud. Shuningdek, Yakkabog'da Qo'shnura tepaligi, G'uzorda Oqnura tepasi va qishlog'i nomlari tarkibida ham bu so'z indikator vazifasida qo'llanilganligini ko'rish mumkin. L. Z. Budagov bu so'zni qadimiy ekanligini e'tirof etgan [4, 11, 295]. Turkiy tillarda bu so'zning qo'llanish doirasi ancha keng bo'lgan. Qozoqlik tilida nura — jar, jarlik, suv o'yib ketgan joy [7, 29]. Qirg'iz tilida nura — jar, tik, tubsiz chuqur. G.K. Konkashpayev nura so'zining tog', vodiqlik ma'nosi ham borligini ko'rsatgan [7, 175]. B.X. Karmisheva Vaxsh qatag'on o'zbeklari nutqida ham suv o'ygan jar nura deb atalishini ko'rsatgan [6,104].

Shiram — bir tomoni tik jarlik bo'lib, boshqa tomonlari yassiroqlik yoki qiyalik bo'lgan cho'ziqlik balandlik. Bu termin faqat Dehqonobodlik tog'liklar nutqida bor. Asqarshiram — Dehqonobod tumanidagi balandlik. Shu tipdagi boshqa balandliklardan farqliq qilib, ajralib turuvchi yuksak do'nglik (shiram).

To'la (yerto'la) - chorva va chorvadorlarning vaqtincha yashov joyi, kishilarning ibtidoiqlik manzilgohi sifatida balandliklarning quyisi, kamar ichlarida kovlanib qazilgan makon. Beshto'la —



Shahrisabz, Chiroqchi tumanlaridagi adir. Beshto'la — bir necha ana shunday manzilgoq.

O'choq — chorvadorlarning yaylovda yozgi yashashi uchun qazilib, usti xas-hashak bilan yopilgan vaqtinchalik makoni, yerto'lasimon qarorgoh. Besho'choq — Dehqonobod, Qamashi tumanlaridagi qishloq. Beshuchoq — ko'p yerto'lasini bo'lgan joy.

Birovuzli (< bir og'izli) — juda tang va siqiq suqmog'i bo'lgan dara. Birovuzli — Qamashi tumanidagi dara. Oronimiyada og'iz>oviz>ovuz — daralarga, tog'ning ichki qismlariga o'tish mumkin bo'lgan so'qmoq, guzar.

Alang — yassi balandlik, tekislikdan sal ko'tarilib turgan do'nglik. Kasbi tumanida Boshalang dashti bor. Bu yerda bosh — ulkan, yirik va eniga nisbatan katta ma'nosiga ega. Demak, Boshalang — nisbatan yirikroq bo'lgan do'nglik joy.

Chel so'zi o'zbekcha bo'lib, ma'no jihatdan Buxoro tarixiga oid asarlarda uchraydigan urd (qadimgi fors tilidagi aradva — tepalik, balandlik so'ziga sinonim [15, 220]). Chel so'zi Kitob, Shahrisabz, Yakkabog', Denov, Qarshi kabi obikor hududlar aholisi nutqida sug'orma dehqonchilik qilish uchun kichik maydonchalarga ajratilgan yerlarning chekkasiga tuproq uyib qilingan cho'ziq uvat, marza. Boshchil — Kitob tumanidagi qishloq. Boshchil — yuqori tomondagi yer uchastkasi yonidagi qishloq. Yonida O'rtachil, Pastchil degan qishloqlar ham bor. [11, 42]

Qipchoq shevasida butan to'daga qo'shilmay ajralib chiqqan, yakka, yolg'iz, chekkaroq joyda, boshqa aholi punktlaridan birmuncha uzoqroq, xilvat

joyda bunyod bo'lgan qishloq. Shundan G'uzor tumanidagi qishloq nomi kelib chiqqan. Demak, Qishloq joylashgan o'rniga nisbatan nomlangan. Butan leksimasidan kishi ismi ham yasalgan.

Gushna — xalq nutqida ishqivoz, haddan tashqari qiziquvchan, o'ta beriluvchan kishiga nisbatan ishlatilgan. Kasbi tumanida Gushna nomli guzar bor. Kishi laqabidan guzar nomi yuzaga kelgan.

Qashqadaryoning quyi tumanlari aholisi nutqida dagar — suv tuplanishi yoki toptalishi natijasida tuprog'i zichlashib qotib qolgan joy, o't-ulan o'smagam yer bo'lagini ifodalaydi. Dagarlik — Kasbi tumanidagi yaylov. Demak, Dagarlik — qattiq joyligi sababli o't-o'lan o'smagam yer, yaylov.

Dapsan ~ dabsan - tog' etaklarining eng quyi qismi yoki tekislik joylarda uchrovchi, balandligi uncha yuksak bo'lmagan, ust qismi yassi bo'lgan balandlik tushunchasini ifodalaydi. Shundan Chiroqchi tumanidagi Dapsan qishloq nomi kelib chiqqan. Demak, dapsan (baland) joyda joylasgan qishloq.

Joviz — qadimiy shakli — yag'iz. XI— XV asr yodgorliklarida ko'p qo'llangan. M. Koshg'ariy, Yusuf Xos Xojib (XI asr) asarlarida yag'iz yer (kul rang, bo'z yer) birikmasi uchraydi [5, 225]. Xujandiyning «Latofatnoma» dostonida ham yog'iz yer birikmasi keltirilgan. Qadimgi turkiy tilda yag'iz so'zining bir ma'nosi yer, tusiga ko'ra otning bir turi ham yag'iz deb nomlangan [5, 225]. Yog'iz — o'zlashtirilmagan, bo'z tuproqli yer. Shu so'zning qipchoq shevalariga xos shakli joviz < jog'iz < yog'iz. Shu leksima asosida Kitob tumanidagi Joviz qishloq nomi kelib chiqqan. Demak, Joviz — bo'z yerda tashkil topgan qishloq.



Jangal — poya va shoxlari bir-biriga chatishib oʻsadigan, oqish rang tanali, mayda gulli, tikanli boʻta. Bunday joy chakalak, changalzor ham deyiladi. Oq — buta oʻsgan joy tuprogʻining oqish (shoʻrxok)ligi va baland joyligiga ishoradir. Bu leksima asosida Koson tumanidagi qishloq nomi kelib chiqqan. Oqjangal tevaragi, yonlarida jangal oʻsgan balandlik va shu balandlik yonidagi qishloq. T. Nafasov bu nomning kelib chiqishini turkman tili yovmit dialektining garbiy shevasida chongol (chungul) — togʻ usti, baland joyi [13, 199] soʻzi bilan bogʻlaydi. Keltirilishicha, u aslida balandlik nomi boʻlgan. Uning tepa, balandlik maʼnosi asosliroq. Oqjangal — oq tepa, baland tepa [11, 146].

Oqpaykal — qishloq xoʻjaligiga oid termin. Bir necha yil ekin ekilmay qolgan yer mahalliy aholi nutqida oqpaykal deyiladi. Bu leksima Gʻuzor tumanidagi Oqpaykal qishloq nomida saqlangan. Qishloq ana shunday joyda tashkil etilgan.

Yuqori Qashqadaryo aholisi nutqida chagʻal, chagʻat—togʻ bagʻrida yuzasi mayda tosh bilan qoplangan joy. Chagʻal, chigʻatning genezisi bir boʻlib, chagʻal birlik, chagʻat koʻplik shaklini ifodalaydi. Bu leksima Chiroqchi tumanidagi Oqchagʻal adiri; Kitob tumanidagi Oqchagʻal togʻ tizmasi nomlarida saqlangan. Oqchagʻal oq tusli mayda toshlardan iborat joy.

Ayri — orografiyada balandliklarning ustki qismidagi yonmayon joylashgan tuya oʻrkachiga oʻxshash doʻnglik. Bu leksima Qamashi tumanidagi Ogʻayri>Oqayri qishloq nomi tarkibida uchraydi. Oqayri — uch qismida ikkita kichik tepachasi boʻlgan katta, yolgʻiz

balandlik.U dastlab oronym sifatida shakllangan boʻlib, keyinchalik oykonimga koʻchgan.

Kasbi tumanida Sazoqli nomli choʻl, dala mavjud. Qamashi va Fazli qishloqlari aholisi nutqida sazoq saksovul oʻsimligi maʼnosini ifodalaydi. Demak, Sazoqli — saksovul oʻsgan joy. Shuningdek, Kasbi tumanidagi Salangli dasht nomi ham fitonim bilan bogʻliq. Salang — mahalliy aholi nutqida qamishsimon choʻl oʻsimligi. Shunday oʻsimlik oʻsgan joy — Salangli.

Dehqonobod tumanida Sarigupchak soy nomi tarkibidagi gupchak leksimasi mahalliy aholi nutqida ikki (va undan ortiq) soy, jilgʻa suvlari birlashib, suvi toʻplanadigan joy maʼnosini anglatadi. Nom tojikcha izofa shaklida yasalgan, yaʼni Sar+i+gupchak — gupchak boshi, suv qushilgan joyning yuqorisi maʼnosiga ega.

Dehqonobod tumanida Sariqaloq nomli qishloq bor. Nom tojikcha sar + i + qaloq izofa usulida yasalgan boʻlib, “qaloqning yuqorisi” maʼnosini ifodalaydi. Qaloq (qala+q — qalangan, ost-ust qilib taxlangan narsa) - Dehqonobod, Boysun, Sherobod, Koʻkabuloq qoʻngʻirotlari shevasida toshni ost-ust qalab vaqtincha qilingan qoʻton, chorva va chorvadorlarning yashov joyi. Sariqaloq — toshdan qilingan qoʻtonning yuqori tomoni, bosh qismidagi qishloq.

Tarpi — Chiroqchi tumanidagi balandlik nomi. Kattatarpi, Kichiktarpi balandligi ham bor. Mahalliy aholi nutqida tarpi — balandlikning bir turi. Adir va togʻ etaklarida oshib oʻtiladigan yoʻli boʻlgan balandlik shunday ataladi.

Koson, Chiroqchi, Qamashi tumanlarida Toʻljoy; Kosoy tumanida



To'lyurt (yaylov) toponimlari bor. Bu nomlar tarkibidagi to'l leksimasi o'zbek shevalariga xos bo'lib, adabiy tilga o'zlashmagan. Qipchoq shevalarida to'l — qo'ylarning tug'ish payti va tuqqan bolasi (qo'zi). To'l so'zi turkiy tillarning ko'pchiligida uchraydigan areali keng so'z: uyg'ur tilida to'l — nasl, bolalash [10,195], qozoq tilida to'l — qo'zilash, uloqlash, qirg'iz tilida to'l— bola; nasl [16, 765]; turkman tilida do'l nasl, qo'zilash, chaqa [14, 263]; tuva tilida to'l — bola, chaqaloq; turk tilida do'l — nasl, bolalash. Xorazm shevasida ham to'l — nasl, bolalash [1, 39].

M. Koshg'ariyda ug'uzcha to'l — bolalash vaqti; qo'y to'ladi — qo'y qo'ziladi [9, III, 287,147]. D. Abdurahmonov to'l so'zining V—VIII asrlar qadimgi turkiy yodnomalarda, o'zbek tilining XI—XIX asrlar obidalarida va o'zbek xalq shevalarida qo'llanishini aniqlagan, to'l va to'r (to'ragan, To'lagan) so'zlarining genezisini belgilagan [2, 43 — 47]. Demak, Tuljoy, To'lyurt — chorvadorlar nutqida qo'zilatish mavsumi amalga oshiriladigan joy. Yaylov va qo'toni yaqin joylar tuljoy sifatida tanlangan.

Dehqonobod tumanida Tug'iztaram nomli qoya, balandlik mavjud. Nom tarkibida indicator sifatida qo'llangan taram mahalliy aholi nutqida orografik termin sifatida — cho'qqi, qoya singari uchli balandliklarning tizmasimon yoki qirga o'xshash qismi tushunchasini ifodalaydi. Yonma-yon joylashgan shunday joylar taram deyiladi. Bunday balandlik o'tmishda tug'iz urug'iga mansub aholi yashagan joyda bo'lganligi sababli shunday nom shakllangan.

G'uzor tumanida Chelgili nomli balandlik mavjud. Chelgi mahalliy aholi

nutqida — atrofi xandaq, chimdevor, toshqalama, umuman, devor bilan o'ralib, qo'y, echki, qoramollarni qamash uchun foydalaniladigan joy. Chorvadorlarning ana shunday vaqtincha yashash joyi bo'lgan balandlik.

Qamashi tumanidagi Childara nomidagi chil leksimasi mahalliy aholi nutqida — suv o'ygan o'yi, jar ma'nolarida qo'llanadi. Turkman shevalaridan biri (Gazanjik) da chil — katta jar [3, 33]. Demak, Childara — jari va jarsimon o'yiqlari ko'p dara.

Qamashi tumanidagi Chovlibuloq toponimi tarkibidagi chov mahalliy aholi nutqida jarlik, chovli — jarli, uydin-chuqur joy. Chovlibuloq — jar yonidagi buloq, uydin-chuqur joydagi suv manbai.

Shiram — Dehqonobod tumanidagi balandlik, tizma nomi. Shiram Janubiy O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston qo'ng'irotlari shevasiga xos so'z bo'lib, u tog' bag'ridan quyi tomon davom etgan cho'ziq balandlik, uzun qir, tizma ma'nolarini ifodalaydi. Orografik xarakterdagi bu termin Dehqonobod tumanidagi Mullashiram, Bo'lakshiram, Qizilshiram, Uzunshiram kabi toponimlar yasalgan.

Qangshar — G'uzor, Chiroshi tumanlaridagi balandlik nomi. Qangshar qipchoq dialektiga xos so'z. Burunning ustida ko'zga tutashgan joyidagi burtib chiqib turgan joy — qangshar, qanshar. Xuddi shunga o'xshash balandlik ham qangshar. Tog' yoki yirik balandlik, tizmalar bag'rida burtib chiqqan balandlik — qanshar, qangshar, ba'zi joylarda tumshuq deyiladi. Termin toponim (oronim) ga aylangan.

G'aybar — mahalliy aholi nutqida bahaybat, juda katta, ulkan



tushunchalarini ifodalaydi. Bu leksima Dehqonobod tumanidagi G'aybartosh adiri nomining yasalishiga xizmat qilgan. G'aybartosh — juda katta, bahaybat toshli adir.

Kasbi tumanida G'ulang nomli qishloq bor. Quyi Qashqadaryo aholisi nutqida g'ulang— pishmagan, hom meva; shakli dumaloq bo'lgan har qanday narsa ma'nosini ifodalaydi. Shuningdek, Kasbi tumani aholisi nutqida uy devoriga qo'yiladigan guvala ham g'ulang deyiladi. T. Nafasov bu nomni G'ulang<g'ilang~gelang — dumaloq tosh, yirik tosh ma'nosida izohlagan [11, 268]. Nazarimizda, qishloq nomining kelib chiqishiga uy devoriga qo'yiladigan guvala, ya'ni g'ulang leksimasi asos bo'lgan.

Dehqonobod tumanida G'urbuloq deb ataluvchi buloq va tog' bor. Mahalliy aholi nutqida g'ur — qirrali, usti g'adirbudur katta tosh. Qadimgi so'g'd tilida g'ar — tog'. Qadimgi eroniy tillarda bu so'zning tosh ma'nosi ham bo'lgan. G'urbuloq — tog'dagi buloq, cho'qqi yoki katta tosh yonidagi buloq. Keyinchalik buloq nomi tog' nomiga ham o'tgan.

XULOSA

Qashqadaryo viloyati toponimiyasi tarkibida uchraydigan dialektal leksik

birliklar hududning tarixiy, etnik va madaniy taraqqiyotini aks ettiruvchi muhim lingvistik qatlam hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mahalliy shevalarga xos geografik terminlar joy nomlarining shakllanishida faol qatnashgan va ular orqali hududning tabiiy-geografik xususiyatlari, xo'jalik faoliyati hamda aholi turmush tarzi ifodalangan.

Toponimlar tarkibidagi *nura, shiram, dapsan, to'la, o'choq, qoq, chel, chag'at, qangshar, g'ur* kabi birliklar qadimiy turkiy qatlamning izlarini saqlab qolgan bo'lib, ayrimlari boshqa turkiy tillar bilan umumiylik kasb etadi. Bu holat Qashqadaryo shevalarining qadimiy tarixiy ildizlarga ega ekanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot davomida dialektal leksikaning toponimlar tarkibida saqlanishi xalqning tarixiy xotirasi va etnomadaniy tajribasini avloddan avlodga yetkazuvchi muhim vosita ekanligi aniqlandi. Shu bois mahalliy shevalar va ular asosida shakllangan toponimlarni kompleks ravishda o'rganish o'zbek tilining tarixiy taraqqiyoti hamda milliy madaniyatni tadqiq etishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

References:

1. Abdullaev F. Xorazm shevalari. T. 1. — Toshkent: Fan, 1961. — 312 b.
2. Abduraxmonov D. Dialektal leksikaga e'kskurs // ŷzbek tili va adabiyoti. — 1965. — №1. — B. 43 - 47.
3. Ataniyazov S. Turkmenstany'ng geografik atlary'ning dushundirishli suzlugi. — Ashxabad: Y'ly'm, 1980. — 356 b.
4. Budagov L. Z. Sravnitel'ny'j slovar` tureczko-tatarskix narechij. T. 1-2. — Sankt-Peterburg, 1869-1871. — 1424 s.
5. Drevnetyurkskij slovar`. — Leningrad: Nauka, 1969. — 676 s.
6. Karmy'sheva B. X. Ocherki e'tnicheskoj istorii yuzhny`x rajonov Tadzhiqistana i Uzbekistana. — Moskva: Nauka, 1976. — 324 s.



7. Konkashpaev G. K. Kazaxskie narodny`e geograficheskie terminy` // Izvestiya AN KazSSR. Seriya geograficheskaya. — Alma-Ata, 1951. — Vy`p. 3. — 148 s.
8. Konkashpaev G. K. Obshhie osobennosti tyurkoyazy`chnoj terminologii Srednej Azii i Kazaxstana // Voprosy` geografii. — Moskva, 1970. — Sb. 81. — S. 96-104.
9. Koshfarij M. Devonu lu`otit turk. T. 1-3. — Toshkent: Fan, 1960 -1963. — 1488 b.
10. Nadzhip E`. N. Ujgursko-russkij slovar`. M., 1968. — 829 c.
11. Nafasov T. Uzbekiston toponimlarining izohli lug`ati. Toshkent: Ukituvchi, 1988. — 179 b.
12. Raximov S. Leksika uzbekskix govorov Surxandar`inskoj oblasti: avtoref. kand. diss. — Leningrad, 1974. — 24 s.
13. Turkmen diliniñ gy`sgacha dialekt suzligi. — Ashxabad, 1977. — 398 s.
14. Turkmen diliniñ suzligi. — Ashxabad, 1961. — 784 s.
15. Chexovich O. D. Buxarskie dokumenty` XIV veka. — Tashkent: Fan, 1965. — 192 s.
16. Yudaxin K. K. Kirgizsko-russkij slovar`. M., 1965. -S. 346.